

## XALQARO INVESTITSYAVIY NIZOLARDA MEDIATSIYA USULINI MAJBURIY BOSQICHGA AYLANTIRISH ZARURATI

Zokirova Sabina Yoqubjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Xalqaro huquq va inson huquqlari” yo‘nalishi

Magistratura bosqichi talabasi

Gmail: yakubjanovna7@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19947555>

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqot ishida xalqaro investitsiyaviy nizolarni hal etishda mediatsiya usulini majburiy bosqich sifatida joriy etish zarurati tahlil qilinadi. Mediatsiyaning an’anaviy sud va arbitraj jarayonlariga nisbatan afzalliklari, xususan, tezkorlik, iqtisodiy samaradorlik va tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarni saqlab qolishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, ushbu usulni qo‘llash orqali investitsiya muhitini yaxshilash va nizolar sonini kamaytirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** ICSID konvensiyasi, ADR tizimi, yarashuv jarayonlari, neytral uchinchi shaxs, tejamkorlik, maxfiylik, kelishuv, huquqiy tizim samaradorligi.

**Annotation:** This study examines the necessity of introducing mediation as a mandatory stage in resolving international investment disputes. It highlights the advantages of mediation over traditional litigation and arbitration procedures, particularly its efficiency, cost-effectiveness, and ability to preserve cooperative relationships between the parties. The study also substantiates the role of mediation in improving the investment climate and reducing the number of disputes.

**Keywords:** ICSID Convention, alternative dispute resolution (ADR) system, conciliation procedures, neutral third party, cost-effectiveness, confidentiality, agreement, efficiency of the legal system.

**Аннотация:** Данное исследование посвящено анализу необходимости внедрения медиации в качестве обязательного этапа при разрешении международных инвестиционных споров. Рассматриваются преимущества медиации по сравнению с традиционными судебными и арбитражными процедурами, в частности её оперативность, экономическая эффективность и способность сохранять партнерские отношения между сторонами. Также обосновывается значение данного механизма для улучшения инвестиционного климата и снижения количества споров.

**Ключевые слова:** Конвенция ICSID, система альтернативного разрешения споров (ADR), примирительные процедуры, нейтральная третья сторона, экономичность, конфиденциальность, соглашение, эффективность правовой системы.

Mediatsiya instituti nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishda bugungi kunda xalqaro huquqning ham, milliy huquqning ham ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa uni investitsiyaviy nizolarda qo‘llash kundan kunga dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Boisi, hozirda investitsiyaviy nizolarni ko‘lami kengayib, nizolarni muqobil hal qilish tizimiga murojaatlar ortib bormoqda. UNCTAD (BMTning savdo va rivojlanish bo‘yicha tashkiloti) tomonidan e‘lon qilingan yangi ma‘lumotlarga ko‘ra, 2020–2025 yillar oralig‘ida investitsiya bitimlari asosida 400 dan ortiq investor–davlat arbitraj ishlari boshlangan. Yangilangan ma‘lumotlar Investment Dispute Settlement Navigator orqali ochiq foydalanish uchun taqdim

etilgan bo'lib, 2025 yil 31 dekabr holatiga ko'ra jami 1 463 ta shartnoma asosidagi investor-davlat nizolarini (ISDS) o'z ichiga oladi<sup>1</sup>. 2025 yil 31 dekabr holatiga ko'ra, ICSID konvensiyasi va Qo'shimcha mexanizm qoidalari (Additional Facility Rules) asosida jami 1 085 ta arbitraj va yarashtirish (konsilyatsiya) ishlarini ro'yxatdan o'tkazgan. Ushbu umumiy son 2025 yilda ro'yxatdan o'tkazilgan 63 ta yangi ishni ham o'z ichiga oladi, bu esa tashkilot tarixidagi bir kalendar yil uchun ikkinchi eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Yangi ishlarining aksariyati (58%) ICSID yurisdiksiyasiga bilateral investment treaty (ikki tomonlama investitsiya bitimi) orqali murojaat qilgan, undan keyin davlat-investor shartnomalari (15%) va milliy investitsiya qonunlari (6%) turadi. 2025-yilda ro'yxatdan o'tkazilgan 63 ta yangi ishning 56 tasi ICSID Konvensiyasi asosidagi arbitrajlar, 6 tasi ICSID Qo'shimcha mexanizmi doirasidagi arbitrajlar va 1 tasi ICSID Konvensiyasi asosidagi yarashtirish (konsilyatsiya) ishidir<sup>2</sup>. Ko'rib turganimizdek, investitsiyaviy nizolar hajmi yetarlicha. Biroq ularning ko'pchiligi mediatsiya, yarashtiruv yoki muzokara emas balki, arbitraj sudiga murojaat qilingandir. Ushbu turdagi nizolarni hal qilishda boshqa usullarni qo'llash, xususan mediatsiyaga yuzlanish taraflar uchun bir qancha afzalliklarni olib keladi. Mediatsiya o'zining tezkorligi, maxfiyligi, hamyonbopligi bilan ajralib turadi. Taraflar o'rtasida iliq munosabatlarni saqlashda, masalani chuqurlashtirmasdan oson va tez hal qilishda, hamkorlikni keyinchalik ham davom ettirishni istaganlar uchun bu usul ayni muddaodir. Ayniqsa, xalqaro investitsiyaviy nizolarda investor va davlat o'rtasidagi munosabatni iliq saqlab qolish zarurati o'rta chiqadi. Chunki, masala nafaqat ikki tarafning balki davlatlarning o'zaro munosabatlariga ham salbiy ta'sir qilmasligi, kelgusida yomon oqibatlarni keltirib chiqarmasligi zarur. Shuning uchun ham nizo yuzaga kelgunga qadar yoki yuzaga kelib bo'lgan taqdirda birinchi o'rinda nizolarni muqobil hal etish mexanizmiga yuzlanish zarur. Hozir kunda ham xalqaro investitsiyaviy nizolar mediatsiya orqali hal qilinganlari ham mavjud bo'lsada, biroq juda kam foizni tashkil qiladi. Shuning uchun ham ushbu nizolarda mediatsiya usulini majburiy bosqichga aylantirish zarur. Ya'ni taraflar o'rtasida nizo yuzaga kelganda ilk bosqich sifatida ADR (nizolarni muqobil hal etish usullari)ni kirgizib o'tishlari va o'z o'rnida arbitraj sudlari ham ish birinchi ADR usullaridan birida ko'rilmasa, ishni qabul qilmaslikni joriy qilish lozimdir.

Bugungi kunda investitsiya bilan bog'liq nizolarni asosan ICSID arbitraji ko'rib chiqadi. To'g'ri ICSID markazida ADR orqali ko'rilgan ishlar ham bor. Ammo kam foizni tashkil etadi. 2025-yilda yakunlangan arbitraj ishlarining 67 foizi tribunal tomonidan hal qilingan, 33 foizi esa kelishuv asosida yoki boshqa sabablarga ko'ra tugatilgan bo'lib, bu ICSIDning arbitraj natijalari bo'yicha uzoq muddatli tendensiyasiga mos keladi<sup>3</sup>. Yarashuv (conciliation) jarayonlari hamon kamligicha qolmoqda. Bu usul bo'yicha 14 ta ish (1,4%) ro'yxatga olingan, shundan 12 tasi ICSID Konvensiyasi asosida va 2 tasi Additional Facility qoidalari asosida<sup>4</sup>. Bu

<sup>1</sup> Update on investor- State arbitrations: 400 cases filed under investment treaties since 2020. 01.04.2026

<https://investmentpolicy.unctad.org/news/hub/1793/20260401-update-on-investor-state-arbitrations-400-cases-filed-under-investment-treaties-since-2020>

<sup>2</sup> ICSID Releases 2025 Caseload Statistics. 17.02.2026.

[https://icsid.worldbank.org/news-and-events/news-releases/icsid-releases-2025-caseload-statistics?utm\\_source=chatgpt.com](https://icsid.worldbank.org/news-and-events/news-releases/icsid-releases-2025-caseload-statistics?utm_source=chatgpt.com)

<sup>3</sup> ICSID Releases 2025 Caseload Statistics. 17.02.2026.

[https://icsid.worldbank.org/news-and-events/news-releases/icsid-releases-2025-caseload-statistics?utm\\_source=chatgpt.com](https://icsid.worldbank.org/news-and-events/news-releases/icsid-releases-2025-caseload-statistics?utm_source=chatgpt.com)

<sup>4</sup> ICSID's most recent Caseload Statistics reveal trends in geography, sectors and outcomes in arbitration. 10.03.2025

juda kam ko'rsatkich hisoblanadi. Aslini olganda ADRning xususan, mediatsiyaning afzalliklari ko'pdir. Mediatsiya investitsiya nizolarini hal qilishning tobora ommalashib borayotgan usuli hisoblanadi. Bu majburiy bo'lmagan va maxfiy jarayon bo'lib, unda neytral uchinchi shaxs, vositachi tomonlar o'rtasida o'zaro maqbul qarorga kelish uchun muloqot va muzokaralarni osonlashtiradi. Aloqalarni saqlaydi. Vositachilik tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni saqlab qolishga yordam beradi, bu ayniqsa tomonlarning doimiy ish munosabatlariga ega bo'lishi mumkin bo'lgan investitsiya nizolarida muhim ahamiyatga ega. Tejamkorlik- Mediatsiya odatda nizolarni hal qilishning boshqa usullari, masalan, sud muhokamasi yoki arbitrajga qaraganda arzonroq. Buning sababi shundaki, bu odatda tezroq jarayon va kamroq resurslarni talab qiladi. Bundan tashqari, mediatsiya masofadan turib amalga oshirilishi mumkin, bu esa tashrif xarajatlarini kamaytiradi. Moslashuvchanlik-mediatsiya tomonlarga uchinchi neytral shaxs qabul qilgan qarordan ko'ra, ularning ehtiyojlariga ko'proq moslashtirilishi mumkin bo'lgan nizo bo'yicha o'z yechimlarini ishlab chiqishga imkon beradi. Bu tomonlarning ehtiyojlariga moslashtirilishi mumkin bo'lgan moslashuvchan jarayon bo'lib, yanada ijodiy va barqaror yechimga olib kelishi mumkin. 2008 yilda Islandiya banklarining qulashi ortidan xorijiy investorlar va Islandiya hukumati o'rtasida ko'plab kelishmovchiliklar yuzaga keldi. Ushbu nizolarning ba'zilarini hal qilish uchun vositachilik qo'llanildi, natijada uzoq va qimmatga tushadigan sud jarayonlaridan qochadi.

Investitsion nizolarni hal qilishda kelishuvning ahamiyati quyidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi: Kelishuv sarmoyaviy nizolarni hal qilishning tejamkor usul Qimmat va ko'p vaqt talab qilishi mumkin bo'lgan sud muhokamasi yoki arbitraj bilan solishtirganda, yarashuv odatda tezroq va arzonroqdir. Ishbilarmonlik munosabatlarini saqlaydi va shuning uchun ham ilk bosqichda qo'llash ancha samara beradi. Kelishuv tomonlarga yaxshi ish munosabatlarini saqlab qolishga imkon beradi, bu nizo hal qilinganidan keyin tomonlar o'z biznes munosabatlarini davom ettirishni xohlaydigan vaziyatlarda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Ko'pincha tomonlar o'rtasidagi munosabatlarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan sud yoki arbitrajdan farqli o'laroq, yarashuv ularning ish munosabatlarini saqlab qolishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 63-moddasida chet el investitsiyalari bilan bog'liq bo'lgan va O'zbekiston Respublikasi hududida chet ellik investorning investitsiya faoliyatini amalga oshirishi chog'ida yuzaga keladigan nizo (investitsiyaviy nizo) muzokaralar o'tkazish yo'li bilan hal etiladi. Agar investitsiyaviy nizoning taraflari muzokaralar o'tkazish yo'li bilan nizoni kelishilgan holda hal etishga erishishga qodir bo'lmasa, bunday nizo **mediatsiya** yo'li bilan tartibga solinishi kerak. Agar bu usullar ham ish bermasa O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida va (yoki) investor hamda O'zbekiston Respublikasi o'rtasida tuzilgan shartnomada tegishli va haqiqiy arbitraj sharti nazarda tutilgan bo'lsa, bunday nizo xalqaro arbitraj vositasida hal etilishi mumkin <sup>5</sup>deya ko'rsatib o'tilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak kundan-kunga xalqaro investitsiyaviy nizolar ko'lami kengaygani sari, ularni hal qilish bilan bog'liq mexanizmini takomillashtirish zarurati yuzaga

[https://www.stewartslaw.com/news/icsids-most-recent-caseload-statistics-reveal-trends-in-geography-sectors-and-outcomes-in-arbitration/?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.stewartslaw.com/news/icsids-most-recent-caseload-statistics-reveal-trends-in-geography-sectors-and-outcomes-in-arbitration/?utm_source=chatgpt.com)

<sup>5</sup> Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekiston milliy qonunchilik bazasi. 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son. <https://lex.uz/docs/-4664142>

keladi. Bu turdagi nizolarda mediatsiya usulini majburiy bosqich sifatida joriy etish bugungi kun taqozosiga aylanib bormoqda. Amaliyot, shuni ko'rsatadiki, an'anaviy arbitraj yoki sud jarayonlari ko'pincha uzoq davom etadi, katta xarajatlarni talab qiladi va tomonlar o'rtasidagi hamkorlik munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mediatsiya esa nizolarni tezkor, moslashuvchan va o'zaro manfaatli kelishuv asosida hal qilish imkonini beradi. Ayniqsa, investitsiyaviy nizolarda investor va davlat o'rtasidagi ishonchni saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. Mediatsiyani majburiy bosqichga aylantirish nizolar sonini sudgacha kamaytirishga, taraflarni konstruktiv muloqotga undashga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat vaqt va mablag'ni tejaydi, balki investitsiya muhitining barqarorligini ham mustahkamlaydi. Shu bilan birga, mediatsiya jarayonida maxfiylik ta'minlanishi investorlar uchun qo'shimcha kafolat yaratadi. Shunday qilib, mediatsiyani xalqaro investitsiyaviy nizolarni hal etishda majburiy bosqich sifatida joriy etish huquqiy tizim samaradorligini oshiradi, o'zaro aloqalarni mustahkamlaydi va taraflar o'rtasida o'zaro ishonchni rivojlantirishga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Update on investor- State arbitrations: 400 cases filed under investment treaties since 2020. 01.04.2026 <https://investmentpolicy.unctad.org/news/hub/1793/20260401-update-on-investor-state-arbitrations-400-cases-filed-under-investment-treaties-since-2020>
2. ICSID Releases 2025 Caseload Statistics. 17.02.2026.
3. [https://icsid.worldbank.org/news-and-events/news-releases/icsid-releases-2025-caseload-statistics?utm\\_source=chatgpt.com](https://icsid.worldbank.org/news-and-events/news-releases/icsid-releases-2025-caseload-statistics?utm_source=chatgpt.com)
4. ICSID Releases 2025 Caseload Statistics. 17.02.2026.
5. [https://icsid.worldbank.org/news-and-events/news-releases/icsid-releases-2025-caseload-statistics?utm\\_source=chatgpt.com](https://icsid.worldbank.org/news-and-events/news-releases/icsid-releases-2025-caseload-statistics?utm_source=chatgpt.com)
6. ICSID's most recent Caseload Statistics reveal trends in geography, sectors and outcomes in arbitration. 10.03.2025
7. [https://www.stewartslaw.com/news/icsids-most-recent-caseload-statistics-reveal-trends-in-geography-sectors-and-outcomes-in-arbitration/?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.stewartslaw.com/news/icsids-most-recent-caseload-statistics-reveal-trends-in-geography-sectors-and-outcomes-in-arbitration/?utm_source=chatgpt.com)
8. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekiston milliy qonunchilik bazasi. 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son. <https://lex.uz/docs/-4664142>